

## DIN, MIF VA ADABIYOT

Yoqubov Jamoldin Madamin o'g'li,

Andijon Davlat Universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

[yoqubovjamoliddin4@gmail.com](mailto:yoqubovjamoliddin4@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada din, mif va adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, ularning tarixiy shakllanish jarayoni hamda inson tafakkuri evolyutsiyasidagi o'rni O'zbek adabiyotining tarixi va buguni misolida ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Mifologik tafakkurdan diniy ongga, diniy ongdan esa badiiy-estetik tafakkurga o'tish jarayonlari madaniy va falsafiy kontekstda yoritiladi. Shuningdek diniy-mifologik motivlarning bugungi o'zbek nasrida transformatsiyaga uchrashi, arxetip va ramz kategoriyalari orqali badiiy ma'no hosil qilishi hodisasi qisqacha talqin qilinadi.

**Kalit so'zlar:** mifologiya, diniy ong, badiiy tafakkur, arxetip, ramz.

**Аннотация.** В данной статье на научно-теоретической основе анализируется органическая взаимосвязь религии, мифа и литературы, процесс их исторического формирования, а также их роль в эволюции человеческого мышления на примере истории и современного состояния узбекской литературы. Рассматриваются процессы перехода от мифологического мышления к религиозному сознанию, а затем к художественно-эстетическому мышлению в культурно-философском контексте. Кроме того, кратко интерпретируется трансформация религиозно-мифологических мотивов в современной узбекской прозе и феномен формирования художественного смысла через категории архетипа и символа.

**Ключевые слова:** мифология, религиозное сознание, художественное мышление, архетип, символ.

**Abstract.** This article analyzes, on a scientific-theoretical basis, the intrinsic relationship between religion, myth, and literature, their historical formation process, and their role in the evolution of human thought, drawing on the example of the history and contemporary development of Uzbek literature. The processes of transition from mythological thinking to religious consciousness, and from religious consciousness to artistic-aesthetic thinking, are examined within cultural and philosophical contexts. Furthermore, the transformation of religious-mythological motifs in contemporary Uzbek prose and the phenomenon of generating artistic meaning through the categories of archetype and symbol are briefly interpreted.

**Keywords:** mythology, religious consciousness, artistic thinking, archetype, symbol.

**Kirish.** Din, mif va adabiyot kishilik tafakkurining boshlang'ich qatlami bo'lib, tarixiy jarayonda o'zaro ta'sir va transformatsiya orqali shakllangan murakkab madaniy tizimlilik kasb etadi. Kishilik jamiyatining Hudo, dunyo, tabiat hodisalari va o'z yaralishi borasidagi qarashlari mifologik tafakkur asosida vujudga kelgan. Insoniyatning dastlabki dunyoqarashi mifologik ong asosida shakllanishi bilan birga borliqni obrazli tafakkur asosida his qilish ham boshlangan. Tabiat hodisalari jonlantirilgan (animizm), kosmos va inson o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud degan tasavvurga kelingan. Mifologik ong uchun voqelik va ramz o'rtasida tafovut yo'q: obraz voqelikning ayni o'zi sifatida qabul qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, mif, din va adabiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik masalasi ko'plab tadqiqotchilar e'tiborida bo'lgan. Xususan, Karl Gustav Jung arxetip va jamoaviy ongsizlik nazariyasi orqali mifologik obrazlarning adabiyotdagi takroriyiligini ilmiy

asoslab bergan. O'zbek adabiyotshunosligida N. Rahmonov hamda J. Eshonqul tadqiqotlarida mifologik tafakkur, motiv va obrazlarning tarixiy-evolyutsion talqini keng yoritilgan. Shuningdek, V.N. Basilov va U. Jumanazarov ishlarida diniy-mifologik tasavvurlarning folklor va madaniy jarayonlardagi aks etishi tahlil qilinib, mazkur muammoning kompleks xususiyati ochib berilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tipologik hamda germenevtik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mifologik, diniy va badiiy matnlarni qiyosiy o'rganish orqali ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, arxetip va ramz kategoriyalari asosida talqin qilindi.

**Tahlillar va natijalar.** Mifologik tafakkur sinkretik xarakterga ega. Unda diniy, estetik va axloqiy pragmatik unsurlar ayrim o'rinlarda yahlit bazi hollarda esa qorishiq tarzda namoyon bo'ladi. Olamning yaralishi (kosmogoniya), insonning kelib chiqishi (antropogoniya), hayot va o'lim sirlariga oid tasavvurlar mif orqali ifodalangan. Mif og'zaki adabiyot shakli sifatida ontologik va etiologik funksiyani bajaradi – u “nima?” va “nima uchun?” savollarga javob beradi. Ayon bo'ladiki, mazkur tafakkur bosqichi kishilik jamiyatining o'z mavjudligi va uni anglashga bo'lgan urinishning ilk ko'rinishidir. Ayrim olimlarning takidlashicha mifologik syujetlar ma'lum strukturaviy invariantlarga ega bo'lib, ular keyinchalik folklor va adabiyotda takrorlanadi. Bu strukturaviy barqarorlik mifning arxetipik tabiati bilan bog'liq. Shu sabab mifni faqat fantastik yoki irratsional rivoyatlar yig'indisi deb emas, balki qadimgi inson ongining gnoseologik modeli hamda madaniy identifikatsiyaning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida baholash zarur.

Insoniyat ongiga samoviy dinlarning sezilarli tasiri natijasida mifologik tafakkur tizimlasha bordi. Pirovardida tiologiya va mif o'zaro sintezlasha boshladi. Malumki din mifdan farqli o'laroq e'tiqodiy va normativ asosga ega. Agar mif obrazli tushuntirish va ekzistensial masalalarni hal qilish usuli bo'lsa, din muqaddas haqiqat (revelatsiya)ga asoslangan e'tiqod va amaliy-ritual tizimdir. Din inson hayotini ma'naviy va axloqiy qoidalar asosida tartibga soladi va inson va Hudo o'rtasidagi dialektik munosabatlarni belgilaydi. Shu bilan birga, din mifologik obraz va syujetlarni to'la inkor etmay balki ularni yangi mazmun bilan boyitadi.

Tavrot, Zabur, Injil, Qur'on kabi muqaddas matnlar tilida ramziy obrazlar, takror, parallelizm va ritmik qurilish muhim o'rin tutadi. Ushbu jihatlar muqaddas matnlarning mif va badiiy adabiyotga tasiri masalasini estetik nuqtai nazardan o'rganish va baholash imkonini beradi. Qur'on oyatlarining asonans va saj (qofiyali proza)ga asos bo'lgan uslubi, bibliyadagi she'riy kitoblar (Mazomirlar, Sulaymon hikmatlarining she'riy qismlari)larida parallelizm va metaforaga to'yinganlik hodisasi, Avestoning liturgik ritmikasi mazkur matnlarning lingvo-poetik va estetik jihatdan yuqori darajada qurilganidan dalolat beradi. Sir emaski diniy qissalar va rivoyatlar hozirgacha adabiyot uchun boy syujet manbai vazifasini bajarib kelmoqda.

Qur'on va hadis syujetlari Sharq adabiyotida, Bibliik syujetlar G'arb adabiyotida, veda va puranalar hind adabiyotida doimiy intertekst sifatida qayta ishlangan. Masalan, Yusuf va Zulayxo qissasi Sharqda Durbek va Abdurahmon Jomiy kabi mumtoz adabiyot namoyondalarining asarlarida Qur'oniy syujet asosida qayta talqin qilingan. Badiiy adabiyot din va mif qatlamlarini estetik tafakkur asosida qayta sintez qiladi. Mifologik yoki diniy motiv badiiy asarga o'z holicha ko'chmaydi balki muallif dunyoqarashi, badiiy niyati hamda estetik idealidan kelib chiqib ijodiy qayta ishlanadi. Aristotel "Poetika"da ta'kidlaganidek, poeziya (adabiyot) mimesis, ya'ni voqelikni taqlid qilish san'atidir, ammo bu taqlid to'g'ridan-to'g'ri nusxa ko'chirish emas, balki ijodiy qayta yaratishdir. Mifda obraz haqiqat sifatida qabul qilinsa, adabiyotda obraz (xayoliy) konstruksiya sifatida anglangan, garchi u chuqur falsafiy va ekzistensial haqiqatlarni ifoda etsa ham. Mazkur holatning namoyon bo'lishini dastlabki og'zaki va yozma adabiy manbalarda ko'rish mumkin. Jumladan qadimgi turkiy bitik toshlarda tangri uning yaratuvchilik qobiliyati, o'z bandalarining avval qilgan amallariga qarab jazo yoki mukofot berishi to'g'risidagi ilk tasavvurlar mavjud. Misol uchun "Kultigin" bitiktoshining birinchi misrasida olamning va insoniyatning paydo bo'lishi haqidagi mif uchraydi. Islom dinining qadimgi Movarounnaxr hududlariga yoyilishi natijasida diniy-mifologik tafakkur islom bilan bog'liq individuallik kasb eta boshladi. Hususan sharq mumtoz adabiyotida tasavvufiy talqin diniy motivlarni estetik darajaga ko'tardi.

- **Komil inson (inson-i komil) g'oyasi:** Azizuddin Nasafiy,
- **Ilohiy ishq (ishq-i ilohiy) konsepsiyasi:** Jaloliddin Rumiy, Masnaviyi manaviy,
- **Ramziy safar (sayr u suluk) motivi:** badiiy tafakkurning markaziy unsurlariga aylangan.

Attor, Rumiy, Saadiy, Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Mashrab kabi shoirlar tasavvufiy g'oyalarni yuqori badiiy she'riyat darajasida ifodalagan. Ularning asarlarida Xudo sevgilining ramzi (ma'shuq, dilbar), ishq ma'rifat yo'li, sharob ma'naviy mastlik, bulbul oshiq qalb ramzidir. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida qushlarning Simurg'ni (ilohiy haqiqat ramzi)ni izlab safariga chiqishlari insonning ma'naviy kamoloti safari allegoriyasi sifatida berilgan.

Arxetip nazariyasi din, mif va adabiyot o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Shveysariyalik psixolog Karl Gustav Yung tomonidan ishlab chiqilgan mazkur nazariya bo'yicha, arxetip jamoaviy ongsizlikda saqlanib qolgan universal obrazlar va motivlardir. Arxetiplar individual tajribaga bog'liq emas, balki insoniyat jamoaviy ongining qadimiy qatlamlarida shakllangan psixik strukturalar hisoblanadi. Arxetip obrazlar turli davr va madaniyatlarda takrorlanadi.

- **Qahramon:** Alisher Navoiy Farhod va Shirindagi Farhod
- **Donishmand:** Saddi Iskandaridagi Arastu
- **Shayton:** mumtoz adabiyotda nafs timsolida gavdalanadi.

Adabiyot ana shu arxetiplarni individual badiiy tajriba orqali qayta yaratadi va konkretlashtiradi, shu bilan birga ularni yangi kontekstual mazmun bilan boyitadi. Din, mif va adabiyot o'rtasidagi munosabat chiziqli rivojlanish emas, balki o'zaro ta'sir jarayonidir. Zamonaviy adabiyotda ham mifologik tafakkur unsurlari saqlanib qolgan. Bu esa inson ongining arxaik qatlamlari butunlay yo'qolmasligini, balki yangi shaklda yashashda davom etishini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, din, mif va adabiyot insoniyat tafakkurining uzviy bog'langan bosqichlari va ko'rinishlaridir. Mif obrazli anglash modeli va gnoseologik paradigma sifatida, din e'tiqodiy, normativ-amaliy tizim sifatida, adabiyot esa estetik tafakkur mahsuli va mimetik san'at sifatida namoyon bo'ladi. Biroq ularning o'zaro chegaralari mutlaq emas – ular bir-birini boyitadi va transformatsiyaga uchratadi.

Mif va diniy motivlarning adabiyotda transformatsiyasi badiiy tafakkurning doimiy yangilanish, tadrijiy takomil jarayonini ko'rsatadi. Adabiyot mif va dinning shunchaki "davomchisi" emas, balki ularni bir ma'noda sintezlash kuchiga ham ega. Postmodern adabiyotda bu jarayon yanada chuqurlashib, mif va diniy matnlar dekonstruksiya va ironiyaga uchraydi, ammo shu bilan birga ularning arxetipik va ontologik ahamiyati saqlanib qoladi. Ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish madaniyat genezisi, badiiy tafakkur evolyutsiyasi va insoniyatning madaniy xotirasi (memoriallik)ni chuqurroq anglash imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Rahmonov. O'zbek adabiyoti tarixi (eng qadimgi daxrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) Toshkent: "Sano-standart" 2017. - 558 bet
2. Юнг К.Г. Архетип и символ. – М.: Ренессанс, 1991. – 304 с.
3. J.Eshonqul. Epik olam: motiv va obraz tadqiqi. Toshkent: "Akademnashr" 2025. - 496 bet
4. J.Eshonqul. Mifologik tafakkur talqini. – Toshkent: "Akademnashr", 2025. 512 bet.
5. Jumanazarov U. Tarix, afsona va din. – Toshkent: "O'zbekiston", 1990. 250 b.
6. Басилов В.Н. Следы культа умирающего и воскрешающего божества в христианской и мусульманской агиологии // Фольклор и историческая этнография. – М., 1983.